



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 29-iyul

376-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 26-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 21-iyundagi PQ–231-son qarori ijrosi haqida” 340-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida.

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 26-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 21-iyundagi PQ–231-son qarori ijrosi haqida” 340-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 26-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 21-iyundagi PQ–231-son qarori ijrosi haqida” 340-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta’minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ–231-son qarori bilan:

Quyidagilar:

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining asosiy vazifalari 1-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 2-ilovaga muvofiq;

2030-yilgacha maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish bo‘yicha erishiladigan maqsadli ko‘rsatkichlar 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi; Belgilanishicha, 2024-2025-o‘quv yilidan boshlab maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini (keyingi o‘rinlarda -xodimlar) qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yaxlit tizimi joriy qilinishi;

maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha mavjud quvvatlarni kengaytirish uchun 4- ilovadagi 11 ta pedagogika kolleji bino va inshootlari, tegishli mol-mulki bilan birga Hududiy markazlar tasarrufiga o'tkazilishi;

Hududiy markazlar tasarrufiga o'tkaziladigan pedagogika kollejlari faoliyati ularda ta'lim olayotgan o'quvchilar o'qishini tamomlashi muddatlariga mos ravishda bosqichma-bosqich tugatilishi va ularning bino va inshootlaridan maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish maqsadlarida foydalanishi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish bo'yicha "Virtual kasbiy rivojlantirish" elektron dasturi joriy etilishi;

2024-yil 1-iyuldan boshlab maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarining xorijda malaka oshirish kurslarida o'qiganligi yoki stajirovkadan o'tganligi haqidagi hujjatlari (diplom, sertifikat, guvohnoma va boshqalar) milliy uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida malaka oshirganlik to'g'risidagi hujjat sifatida tan olinishi;

Institut va Hududiy markazlarga o'quv mashg'ulotlarini olib borish uchun bakalavr darajasiga ega bo'lgan, kasbiy faoliyatida yuqori natijalarga erishgan hamda tegishli xalqaro yoki milliy sertifikatlarni qo'lga kiritgan mutaxassislarni ishga qabul qilishga ruxsat etilishi;

2024-2027-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogic mahorat markazlarining moddiy-texnika bazasini bosqichma-bosqich mustahkamlash bo'yicha asosiy parametrlar 5-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi sog'lomlashtirish oromgohlari 6-ilovaga muvofiq Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimi xodimlari, ilg'or pedagoglar hamda iqtidorli o'quvchilar uchun mo'ljallangan dam olish maskanlari sifatida qayta tashkil etilishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga 7-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (E.Ermirzayev) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori talablari asosida ish tashkil qilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi v.v.b



B.Muydinov